

## MUZEY TUSHUNCHASI VA MUZEYLARDA FONDNING AHAMIYATI

**Abdullayeva Sadoqat Xamidovna**

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi “Xorazm durdona bitiklari”  
bo‘limi ilmiy xodimi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada muzeylar haqida tushuncha va muzeylarning tashkil topishi shuningdek muzey fondlarining ahamiyati to‘g‘risida va fonlarning boyish manbalari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ICOM, “Muzeylar kechasi”, moddiy manbalar; tasviriy manbalar, yozma manbalar, rentgen, Kolleksion fond, Dublet fond, Almashtiruv fondi.*

## THE CONCEPT OF MUSEUM AND THE IMPORTANCE OF FUND IN MUSEUMS

### ABSTRACT

*This article provides information about the concept of museums and the organization of museums, as well as the importance of museum funds and sources of enrichment of funds.*

***Keywords:** "ICOM, "Night of Museums", material resources; pictorial sources, written sources, X-ray, Collection fund, Doublet fund, Exchange fund.*

Butun dunyo madaniyat va san‘at ixlosmandlari uchun o‘tmishdan «jonli ertaklar» hikoya qiluvchi sokin va sirli go‘shalar – muzeylar doim ham alohida e‘tiborga loyiq bo‘lib kelgan. Shu bois ham 18-may butun dunyoda muzeylar kuni sifatida nishonlanishi aynan muzeylar faoliyatiga qiziquvchilar uchun notanish ma‘lumot emas, deb be‘malol ta‘kidlashimiz mumkin. Har yili 18-may kuni dunyo bo‘ylab muzey xodimlari o‘zlarining professional bayramlarini – Xalqaro muzey kunini nishonlashadi. Bu ko‘pchilik taxmin qilganidek, birinchi muzey ochilgan kun bilan bog‘liq emas. Bu an‘ana dastlab 1977-yilda, Xalqaro muzeylar kengashining (ICOM) navbatdagi yig‘ilishida o‘rtaga tashlangan taklif bir ovozdan qabul qilinganidan buyon davom etib kelmoqda. [1]

1978-yildan beri Xalqaro muzeylar kuni 150 dan ortiq mamlakatlarda nishonlanib kelinmoqda. Ushbu madaniy bayramning nishonlanish ko'lamini bugun turli hududlarda turlicha ko'rinish kasb etadi. Ulardan biri so'nggi yillarda mashhur bo'lib kelayotgan "Muzeylar kechasi" dir. Dunyoning ko'plab shaharlarida, odatda 18-mayga yaqin shanbadan yakshanbaga o'tar kechasi ana shunday bayramlar tashkil etiladi.[2]

Muzey faoliyati, ishi muzey fondi asosida yuritiladi. Bu ishning amalga oshirish va qiymati muzey xodimlarining manba to'g'risidagi bilimlarini, manbaning madaniy qiymati, hissiy ta'siri, tarixiy jarayoni haqidagi ma'lumotlarni aniqlash va oydinlashtirish yo'lidagi sa'yi harakatlari bilan belgilanadi. Muzey fondi utmishi, hozirgi zamon va kelajakni bog'lovchi, uyg'unlashtiruvchi manbadir. Muzey fondining arxiv va kutubxona fondlaridan farqi shundaki, u tarixiy jarayonni kompleks xujjatlashtiradi. Predmetning tabiatiga, uning ma'lumot berish imkoniyatiga ko'ra tarixiy manbalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) moddiy manbalar;
- b) tasviriy manbalar;
- v) yozma manbalar;
- g) fonoyozuv va kinofil'mlar.

Muzey zaxiralari asosini – muzey predmetlari tashkil etadi. Bularga tarix va madaniyat yodgorliklari, ijtimoiy va tabiiy jarayon va hodisalarni xujjatlashtira olish xususiyatiga ega, o'z muhitidan ajratib keltirilgan tabiat obyektlari kiradi.. Ulardan tashqari, zaxiralarga ilmiy – yordamchi materiallar ham kiradi. Lekin bu materiallar muzey predmeti xususiyatga ega bo'lmay, muzey predmetlarini o'rganish va ekspozitsiyalashga yordam beradi. Predmetni o'rganish jarayonida yoki bevosita ekspozitsion zaruriyat uchun yaratilgan rekonstruksiya, maketlar, modellar, xaritalar, loyixalar, grafiklar, tablitsalar, turli sxemalarga ilmiy yordamchi material deyiladi. Muzeyga olingan predmetlarning barchasi, davlat mulki sifatida xujjatlashtiriladi. Shu tarzda ularning yuridik saqlovi - zaxiralari hisobi amalga oshiriladi. Bu ish kelgusidagi muzey predmetlarini o'rganish jarayonida olib boriladi,

chunki ular xaqida xujjatlarda qayd etilgan faqat ilmiy ma'lumotgina kornkret predmet haqida nisbiy yozish ishlari olib borishga imkon beradi.

Muzeyning ilmiy-ko'makchi materiallariga, muzey predmetlari safiga kirmaydigan, lekin uni o'rganish va namoyish etishga yordam beradigan materiallar kiradi.

Ular asosan 4 guruhga bo'linadi:

1. Muzey predmetlarini tashqi ko'rinishini tiklashga, asl nusxalarini qayta o'z holiga keltirishga yordamlashadigan materiallar.
2. Muzey predmetining tuzilishini aniqlashga, tadqiq etishga yordam beradigan materiallar (rentgen).
3. Muzey predmetlarini o'zaro aloqasini o'rganishga yordam beradigan materiallar (masalan: sxemalar, matolarni to'qish usullarini ko'rsatadigan).
4. Aniq bir tarixiy voqeani o'rganishga yordam beradigan materiallar-diagramma va xaritalar, chizmalar.

**Muzey kolleksiyalarining qimmati** uning miqdori va sifati bilan belgilanadi. Bu kolleksiyalar qaysi davr, voqea, hodisa, manbaga tegishliligi; uning qurilishi, asosi, tasviriyiligi, maishiy-sotsial xususiyati, davri va joyi , qimmatli berajak ma'lumotiga qarab ilmiy printsip asosida guruhlanishi lozim. SHunga ko'ra muzey fondi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Asosiy fond - tarkibiga kolleksiyaning asosini tashkil qiladigan, muzey faoliyatini to'la ochib beradigan predmetlar kiradi.
2. Almashtiruv fondi - unda muzey kam extiyoj sezadigan predmetlar o'rin egallaydi, ya'ni muzey faoliyati uchun uncha muhim bo'lmagan ashyolar kiradi.
3. Kolleksion fond - muzey fondining asosini. Yadrosini tashkil etadi. Unda yagona nusxa yoki nusxalar ichida eng yaxshi nusxa saqlanadi.
4. Dublet fond - asosan tipik predmetlardan tuziladi.

**Muzey fondi ishining asosiy yo'nalishlari.** Fond ishini asosiy maqsadi muzey predmetini tadqiq etish va o'rganish, saqlash va foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratish, fond ishi nazariyasi va uslublarini ishlab chiqarishdir:

1. Muzeý kolleksiyasini to'ldirib borish. Bizni o'rab turgan olamdagi predmetlar orasida muzeý ahamiyatiga moliklarini tanlab borish.
2. Muzeý predmetlarini hisobga olish. Hisobga olish natijasida predmet muzeýning huquqiy himoyasiga o'tadi.
3. Muzeý predmetlarini saqlash. Muzeý predmeti va ilmiy-ko'makchi materiallarni fizik saqlash, zarur bo'lsa tiklash ishlarini olib borish.
4. Fondni o'rganib borish. Fond bo'limlarini o'rganish va yangi bo'limlarni tashkil etish borasida izlanishlar olib borish.
5. Fond ishi bo'yicha konsultatsiyalar tashkil qilish.
6. Muzeý predmetlarini o'rganish.

**Muzeý predmetlarini o'rganish uslublari.** Muzeý predmetlarini o'rganish fondi ishining asosiy yo'nalishi bo'lib, aniqlash, turkumlash va tartiblashtirish, sharxlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Aniqlash jarayonida muzeý predmetining - xom ashyosi, o'lchami, og'irligi, rangi, tayyorlanish uslubi, ijtimoiy, etnik, mualliflik mansubligi v.b. jihatlari o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlangan jihatlarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun mehnat qurolini tosh, bronza yoki temir davriga oid ekanligini aniqlashda yordam beradi.

**Izohlash.** Muzeý predmetlarini izohlash juda katta ahamiyatga ega bo'lib, predmet haqida qo'shimcha ko'plab ma'lumotlarni yig'ishni va o'rganishni talab etadi. Natijada predmet foydalanilgan, yaratilgan davr haqida to'la tushuncha hosil bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzeý>
2. <https://news.rambler.ru/other/44201332-mezhdunarodnyy-den-muzeev-v-kitae/>
3. Alimov I. Arxivshunoslik. - Andijon., 2006.
4. Jumayev U. O'rta Osiyo va O'zbekistonda arxiv ishi tarixi, O'zbekistonning asosiy arxivlari. - T., 2010.
5. Raxmonkulova 3. Arxeografiya. - T., 2011.